

Inklyuziv ta'lim va zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillari

Dilnoza Vahobjonova
dvaliyeva94@gmail.com

Ilmiy maslaxatchi: Azimaxon Odiljon-qizi Kamolova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi hamda uni O'zbekiston ta'lim tizimida tashkil etishning huquqiy va amaliy asoslari tahlil qilinib, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy moslashtirish vazifalari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida teng huquqli muhit yaratish va jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ijtimoiy integratsiya, psixologik-pedagogik yondashuv, korreksion ishlar, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv, maxsus dasturlar

The main principles of inclusive education and modern education

Dilnoza Vahobjonova
dvaliyeva94@gmail.com

Scientific advisor: Azimaxon Odiljon-kizi Kamolova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the integration of inclusive education and modern technologies into the educational process and the legal and practical foundations of its organization in the education system of Uzbekistan, and highlights the tasks of social adaptation of children with special needs. Also, special attention is paid to the issues of creating an equal environment in educational institutions and using modern educational technologies in the process.

Keywords: inclusive education, social integration, psychological and pedagogical approach, correctional work, modern technologies, social adaptation, special programs

Inklyuziv ta'lim bu - davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga

yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Zamonaviy ta'lim tizimida har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash muhim hisoblanadi. Shu sababli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularni jamiyatga integratsiya qilish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi¹. «Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'i nazar, hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi» (Harakat Rejasiga kirish 3-band). Inklyuziv ta'lim vazifalari:

- ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni oilalardan ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari: - Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi - Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili - Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili - Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili - Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili - Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili - Malaka tamoyili². O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etish va unga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. • Masofaviy ta'lim platformasi - imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun darslarni masofadan turib o'zlashtirish va topshiriqlarni berish imkonini beruvchi platforma hisoblanadi. • Ekran o'quvchi dasturlar - ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun darsliklar va elektron materiallarni ovozli shaklga keltiruvchi dasturiy ta'minotlar maktab va oliy ta'lim muassasalariga joriy etilmoqda. • Ovozli tarjima - eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'qituvchining nutqini bevosita matn ko'rinishida o'qib borishlari uchun maxsus dars xonalarida qo'llanilmoqda. Ushbu jarayonlarning barchasi mamlakatimizda alohida ehtiyojli bolalarni faqatgina ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, ularga raqamli davr talablariga mos ta'lim berishga xizmat qiladi³. Ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; miyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir. Yuqoridagi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Imkoniyati cheklangan bola- umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi.

1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola - bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida aqliy rivojlanishi turg'un buzilgan bolalar

2. Ko'rishda muammosi bo'lgan bola-ko'rish qobiliyati, ko'rish o'tkirligi qisman buzilgan yoki keskin pasaygan - ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi bolalar

3. Harakatlanishida muammosi bo'lgan bola-tayanch harakat a'zolari faoliyatida buzilishlar bo'lgan bolalar

4. Eshitishda muammosi bo'lgan bola - eshitish qobiliyati qisman yoki keskin pasaygan - zaif eshituvchi hamda kar bolalar.

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi doirasida imkoniyati cheklangan, yetim va qarovchisiz qolgan bolalarga huquqiy, ijtimoiy yordam tadbirlari rejasining amalga oshirilishi - "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturining mazmun-mohiyati va maxsus ta'limga bo'lgan e'tibor kabi dolzarb masalalar muhokama etildi. Shuningdek, Samarqand shahrida "Alohida ehtiyojli bolalar ta'limida yangicha yondashuv - inkluziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari" mavzusidagi seminar-trening maxsus maktab-internatlar, sanatoriya tipidagi, kam ta'minlangan oila farzandlari uchun mo'ljallangan maktab-internatlar va "Mehribonlik" uylari rahbar xodimlari hamda pedagoglarini inkluziv ta'limning mohiyati, mazmuni, huquqiy asoslari, bu ta'lim tizimining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad va inkluziv ta'lim tizimining amaliy natijalari bilan tanishtirish maqsadida bo'lib o'tdi. Ushbu seminar-treningda quyidagi masalalar hal etildi:

Inkluziv ta'limning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari xususida ma'lumotlar berildi; Maxsus ta'lim mazmunida yangicha yo'nalishlar, ta'lim

mazmunini takomillashtirish yo'llari ma'ruzalar asosida bayon etildi; Jahon miqyosida va O'zbekistonda inkluziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari xususida mukammal ma'lumotlar berildi;

Inkluziv ta'lim amaliy natijalarining namoyishi ishtirokchilar tomonidan muhokama etildi;

Inkluziv ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uslublari masalasida ma'lumotlar bayon etildi;

Inkluziv ta'lim tizimini joriy qilish uchun amaliy ko'rsatmalar va tavsiyalar berildi⁵.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inkluziv ta'limni tashkil etish alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirishning asosiy vositasidir. Bu jarayonda an'anaviy metodlarni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish dars samaradorligini oshiradi. Inkluziv ta'lim - bu nafaqat ta'lim tizimidagi, balki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiya qilish ularning huquqiy tengligini ta'minlashning asosidir. Inkluziv ta'limda tenglik tamoyili - inkluziv ta'lim bolaning jismoniy yoki intellektual holatidan qat'i nazar, uning sifatli ta'lim olishga bo'lgan fundamental huquqini ta'minlaydi. Bundan tashqari, kompleks yondashuv - muvaffaqiyatli integratsiya uchun faqat maktab sharoiti emas, balki psixologo-pedagogik qo'llab-quvvatlash, korreksion ishlar va moslashuvchan o'quv dasturlarining o'zaro uyg'unligi talab etiladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tadbiq qilish inkluziv ta'limning samaradorligini oshiradi hamda ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. S. Rahmanova " Defektologiya asoslari " (27-30 betlar) 2017.
2. L. R. Muminova, R. Shomahmudova. "Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion/rivojlantirish dasturining metodik asoslari" uslubiy tavsiyanoma. "Razzoqov O. J." XT bosmaxonasi, 2007 yil.
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, UNICEF: Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Kvinta Print" MChJ, Toshkent, 2008.
4. X. Kalbayeva. O'zbekiston Respublikasida inkluziv ta'lim konsepsiyasi. "Inkluziv ta'lim sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish dasturi va metodik tavsiyalari". Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi, Toshkent.
5. Ogli, YJA (2024). Kelajakdagi tarix o'qituvchilarida aksiologik yondashuvni rivojlantirishga kirishning mazmuni. JournalNX, 10 (10), 34-38.

6. M.Y. Ayupova " Logopediya" darslik; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007
8. Azimaxon, K. (2025). Professional Health of Teachers as A Key Factor in The Development of Modern Education. European International Journal of Pedagogics, 5(01), 121-124.
9. Mutalov, S. X. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2026). Bola tarbiyasida iqtisodiy va ekologik tarbiyaning ahamiyati va o‘rni. Science and Education, 7(2), 255-259.
10. Azimaxon, K. (2025). O'qituvchilarning kasbiy salomatligi zamonaviy ta'lim rivojlanishining asosiy omili sifatida. Yevropa xalqaro pedagogika jurnali , 5 (01), 121-124.
11. Ibragimova, M. va Kamolova, A. (2026). Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. Fan va ta'lim , 7 (2), 264-267.
12. Kamolova, AOQ (2026). O'qituvchining shaxsiyati va uning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri. Fan, texnologiya va ta'lim akademik jurnali , 2 (4), 67-69.
13. Avazjon o‘g‘li, A. R., & qizi KHOLIKOV, K. A. O. (2026). O‘ZBEKISTONDA MILLIY MAKTAB MUOMMOSI BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. TADQIQOTLAR, 77(2), 136-140.
14. Yo'ldashev, J. va Xoljigitov, D. (2025 yil, noyabr). MATEMATIKA O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI. Ilmiy amaliy anjumanda (1-jild, 1-son, 459-462-betlar).